

AJRMNING BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI

Mamatkarimova Fotimaxon Abduvoxobovna
ADPI assistent o’qituvchisi
fotimamamatkarimova81@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19355017>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy ajrimning bolalar psixologik rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Ajrim jarayonida bolalarda yuzaga keladigan emotsional holatlar, xulq-atvor o’zgarishlari va ijtimoiy moslashuv muammolari ko’rib chiqilgan. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ota-onaning ajralishi bola ruhiyatiga turli darajada ta’sir qiladi va bu ta’sir bolaning yoshi, oilaviy muhit hamda ota-onaning munosabatiga bog’liq bo’ladi. Maqolada ajrim oqibatlarini kamaytirish bo’yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so’zlar: ajrim, oila, bola psixologiyasi, stress, emotsional rivojlanish, depressiv holat, tarbiya, ijtimoiy moslashuv, ruhiyat, xulq-atvor o’zgarishlari.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние семейного развода на психологическое развитие детей. Рассматриваются эмоциональные состояния, изменения в поведении и проблемы социальной адаптации, возникающие у детей в процессе развода. Исследования показывают, что развод родителей влияет на психику ребенка в разной степени, и это воздействие зависит от возраста ребенка, семейной обстановки и отношений между родителями. В статье также даны рекомендации по смягчению последствий развода.

Ключевые слова: развод, семья, психология ребенка, стресс, эмоциональное развитие, депрессивное состояние, воспитание, социальная адаптация, психика, изменения в поведении.

Abstract. This article analyzes the impact of family divorce on the psychological development of children. It examines emotional states, behavioral changes, and social adaptation problems occurring in children during the divorce process. Research shows that parental divorce affects a child's psyche to varying degrees, depending on the child's age, family environment, and parental relationships. The article also provides recommendations for mitigating the consequences of divorce.

Keywords: divorce, family, child psychology, stress, emotional development, depressive state, upbringing, social adaptation, psyche, behavioral changes.

Kirish. Oila jamiyatning muhim ajralmas qismi bo’lib ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Bolalarning shaxs sifatida shakllanishi jarayonida oilaning roli beqiyosdir. So’nggi yillarda turli ijtimoiy va iqtisodiy omillar sababli ajrimlar soni ortib bormoqda. Bu holat nafaqat er-xotin munosabatlariga, balki farzandlarning psixologik rivojlanishiga ham jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda. Shu sababli ajrimning bola psixologiyasiga ta’sirini o’rganish dolzarb masalalardan biridir.

Prezidentimiz raisligida o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida 2025-yil boshidan buyon 32 mingga yaqin oila ajralib ketgani ma’lum qilingan. 16 ming ota-ona aliment to’lashdan bo’yin tovlab kelishgani, shuningdek, oilasi va bolalarini kredit qarzlari bilan tashlab ketish holatlari kuzatilgan. Shu bilan birga, ajrimlarda taraflar, ayniqsa, farzandlar og’ir moddiy ahvolga tushishining oldini olish uchun nikoh shartnomasi tuzishning afzalliklarini targ’ib qilish lozimligi ta’kidlangan.

Ajrashishdan keyin er-xotin o’rtasida emotsional sovush va g’azab tuyg’ulari ustunlik qiladi. Destruktiv g’azab juftliklar o’rtasidagi barcha boshqa ijobiy his-tuyg’ularni siqib chiqaradi. Er-

xotinni ajrashish yoqasiga olib keladigan asosiy omil — ularning bir-biriga qarshi o‘zaro kurashga kirishishidir. Vaholanki, juftliklar tabiatan yaxlit oila bo‘lishga intiladilar. Agar ular bir-birining qadr-qimmatini his qila olmasalar va o‘zlarini yagona oila sifatida anglamasalar, bir-birining shaxsiyatiga tajovuz qilish hamda haqoratlash bosqichiga o‘tadilar. Natijada, o‘z-o‘zini qadrlash hissini yo‘qotgan juftliklar nikoh munosabatlarini boshqarish layoqatidan mahrum bo‘ladilar.

Ajrashish qarori va ushbu jarayon nafaqat er-xotinga, balki butun oila tizimiga, xususan, farzandlarga jiddiy shikast yetkazadi. Ushbu davrda o‘z kechinmalari, qo‘rquv va xavotirlarini ifoda eta olmaydigan eng zaif qatlam — bu bolalardir. Bolalar o‘z tuyg‘ularini namoyon etishni xohlamaydilar yoki bunga qodir emaslar, natijada ichki iztirob bilan yashaydilar.

Kichik yoshdagi bolalar ko‘pincha ota-onasining ajrashishida o‘zlarini aybdor deb hisoblaydilar. Ularda «Agar men yaxshi bola bo‘lganimda, ota-onam ajrashmagan bo‘lardi» [1-109] degan subyektiv qarash shakllanadi.

Oila muhitidagi beqarorlikni tushuna olmagan bola chuqur depressiv holatga tushadi. Ajrashish bolalar uchun ekzistensial yo‘qotish va og‘ir psixologik zarbadir. Ota-onasi ajrashish arafasida bo‘lgan bolaning ichki dunyosida bo‘shliq paydo bo‘lib, hayot mazmunini yo‘qotgandek tuyuladi. Bu holat bolada bezovtalik, diqqat konsentratsiyasining buzilishi, apatiya (harakatsizlik) va psixosomatik belgilar (tez-tez nafas qisishi) shaklida namoyon bo‘lib, uning umumiy hayot ritmi buzilishiga olib keladi. Bu holat bolalarda turli xil salbiy oqibatlarni olib kelishi mumkin.

Ajrim jarayoni bolalar uchun kuchli psixologik stress manbai hisoblanadi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onaning ajralishi bolalarda quyidagi holatlarni keltirib chiqaradi:

- xavotir va qo‘rquv hissining kuchayishi
- o‘zini aybdor his qilish
- tushkunlik va yolg‘izlik hissi
- agressiv yoki aksincha, tortinchoq xulq-atvor

Ayniqsa kichik yoshdagi bolalar vaziyatni to‘liq tushunmagani sababli o‘zlarini aybdor deb his qilishlari mumkin. O‘smir yoshidagi bolalarda esa ajrim ko‘pincha isyonkorlik, o‘qishga qiziqishning pasayishi yoki ijtimoiy muammolar bilan namoyon bo‘ladi.

Yosh omiliga bog‘liq psixologik o‘zgarishlar

Bolaning ajrimga bo‘lgan reaksiyasi uning yoshiga ham bog‘liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘pincha ota yoki onadan ayrilish qo‘rquvini boshdan kechiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ota-onaning ajralishini tushunishga harakat qiladi, ammo ko‘pincha o‘zini aybdor deb his qiladi. O‘smirlar esa mustaqil fikrlashga ega bo‘lgani sababli vaziyatni chuqurroq his qiladi va bu ularda stress, g‘azab yoki depressiyaga olib kelishi mumkin.

Mutaxassislar bolaga ajrimning salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun quyidagi tavsiyalarni beradi:

1. Bola bilan ochiq va samimiy suhbat qilish.
2. Ota-onaning bolaga nisbatan mehr va e‘tiborini kamaytirmasligi.
3. Bolani ota-onalar o‘rtasidagi nizolarga aralashtirmaslik.
4. Zarur hollarda psixolog yordamidan foydalanish.
5. Bolaning kundalik hayoti va tartibini imkon qadar barqaror saqlash.

Uyida tinchlik topgan kishi insonlarning eng baxtlisidir [2-86]. Demak bolalarni erkin yashashi, o‘z fikrini bayon eta olishi, Ota-ona bilan do‘stona munosabatda bo‘lishi uchun er-xotin munosabatlari yaxshi bo‘lishi darkor.

Xulosa. Ajrim bolalar psixologiyasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan murakkab ijtimoiy jarayondir. Biroq ota-onaning to‘g‘ri yondashuvi, sog‘lom psixologik muhit va mutaxassislarning

ko‘magi orqali uning salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin. Shuning uchun ajrim jarayonida eng muhim masala – bolaning ruhiy holatini himoya qilish va uning sog‘lom rivojlanishini ta’minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сулейман Хежебил. Балдар психологиясы.-Таалим.2022 –[1-109]
2. Raimov A. Hikmatlar shadasi.-Toshkent.2013-[2-86]
3. Karimova V. Oila psixologiyasi. – Toshkent.
4. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent.
5. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development.
6. Abdulmadjidova, M. (2021). Muloqot–Bola Psixik Rivojlanishining Muhim Omili.

BARQARORLIK VA YETAKCHI

7. qizi Xabibullayeva, S. S., & qiz Abdulmadjidova, M. D. (2023, January). TEZKOR QAROR QABUL QILISH-HOZIRGI ZAMON MUHIM TALABI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 45-49).

8. Abdulmadjidova, M., & Sattarova, I. M. (2021). O’smirlar o’rtasidagi nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda hamkorlik masalalari. *Science and Education*, 2(12), 602-608.

9. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta’lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O ‘Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. *TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 5-9.

10. M. Abdulmadjidova (2024). ILK O ‘SPIRINLIK DAVRIDAGI O ‘QUVCHILARNI PSIXOTIPLARIGA QARAB KASBGA YO ‘NALTIRISH ISHLARINI OLIB BORISH NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI. *Inter education & global study*,(10), 412-418.

11. Abdulmajidova, A. M. (2024). O‘QUVCHILARDA KASBIY KO‘NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(5), 149-151.